

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**CHET TILI KOMPETENSIYALARINI O'QITISHDA XORIJIY INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARINI AMALIYOTGA SAMARALI JORIY ETISHNING AHAMIYATI**

Yuldasheva F.F

Ilmiy rahbar:

O'zDJTU katta o'qituvchisi

Soliyeva Sarvinoz Sohibjon qizi

O'zDJTU 2 - kurs talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada bugungi globallashuv davrida va butun dunyo bo'ylab juda katta o'zgarishlar bo'layotgan bir paytda barcha mamlakatlar kabi bizning yurtimizda ham chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab va qiziqish ortib bormoqda. Bundan tashqari, an'anaviy va zamonaviy ta'lim shakllarining yutuqlari va kamchiliklari ham bor.

Abstract: In this article, the demand and interest in learning foreign languages is increasing in our country, as well as in all countries, at a time when great changes are taking place all over the world. In addition, there are the achievements and shortcomings of traditional and modern forms of education.

Аннотация: В данной статье спрос и интерес к изучению иностранных языков возрастает в нашей стране, как и во всех странах, в то время, когда во всем мире происходят большие перемены. Кроме того, существуют преимущества и недостатки традиционных и современных форм обучения. **Kalit so'zlar:** Innovatsion texnologiyalar, metod, globallashuv, o'zlashtirish, xorijiy tillar, internet vositalari, samaradorlik, imkoniyat, individual yondashuv, individuallashtirish, differentsiallashtirish.

Key words: Innovative technologies, method, globalization, mastering, foreign languages, Internet tools, efficiency, opportunity, individual approach, individualization, differentiation.

Ключевые слова: инновационные технологии, метод, глобализация, освоение, иностранные языки, интернет-инструменты, эффективность, возможность, индивидуальный подход, индивидуализация, дифференциация.

Biz shiddat bilan rivojalanayotgan va globallashuv asrida yashayapmiz. Zamonaviy texnologiya deyarli barcha sohalarni qarab oldi va ta'lim tizimi ham bundan mustasno emas. Albatta, bu holat, ya'ni, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda darslarni olib borish, o'zlashtirish sifatiga o'zining sezilarli darajada ta'sirini ko'rsatdi va ushbu omillar ijobiy ekanligi barchamizga ma'lum. Bu texnologiyalarning vazifalari talabalarga real sharoitda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun keng ko'kamli Internet vositalaridan foydalanish imkoniyatini berish orqali o'quvchi va talablarning bilim va salohiyatini yanada kuchaytirishdir. Shu jumladan, o'qituvchilar

ham ushbu innovatsiyalardan samarali foydalanishga harakat qilishmoqda, chunki bu kabi texnologiyalar o'quvchilarga ancha qulay bo'lib, darslarni qiziqarli va tushunarli qilmoqda.

Prezidentimiz

Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida" gi 2021-yil 19-noyabrdagi RQ-5117-son qaroriga [3] muvofiq ta'lim muassasalarida yangi innovatsion texnologiyalar va metodlarga asoslangan darslar joriy qilindi va chet tillarini o'rganish imkoniyatlari kengaytirildi.

So'nggi yillarda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi ushbu yo'nalishni yanada isloh qilish masalasini ko'ndalang qo'ydi va bu yo'nalishga xorijiy texnologiyalarni joriy qilish ham dolzarb masala bo'lib qoldi. Bunda aynan bir davlatning emas, balki butun dunyodagi mamlakatlarning innovatsion metodlarini joriy qilishning samarasi inobatga olindi.

Xorijiy

tillarni o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchi va talabalar o'rtasida kommunikativ madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, chet tillarini amaliy tarzda samarali o'rgatish hisoblanadi. [1,25] O'quvchilarning vazifasi esa har bir o'quvchi va talabaning tilni o'zlashtirishi uchun shart-sharoit va imkoniyat yaratish; har bir talabaga o'z faolligini, bilimini, ijodkorligini namoyon etish imkonini beradigan ta'lim berish va o'qitish metodlarini tanlash; o'qitish jarayonida talabaning faolligini oshirish; zamonaviy pedagogik texnologiyalarga tayangan holda dars jarayonini tashkil etish; talabalar va o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlash; bolalarning qobiliyatlarini, bilim darajasini inobatga olgan holda o'qilishni individuallashtirish va differentsiallashtirishni ta'minlash hisoblanadi.

Yutuqlari

- dars jarayoni va talabalarning xatti-harakatlari o'qituvchi tomonidan qattiq nazorat qilinadi;

- vaqtning samarali taqsimoti;
- dars davomida kuchli intizom;

Kamchiliklari

- talabalar va o'quvchilar darsda passiv qatnashadilar;

- o'qitish jarayonidagi o'qituvchi tomonidan o'rnatilgan qattiq intizom talabalarda motivatsiya paydo bo'lismiga to'sqinlik qilishi mumkin;

- talabalar va o'qituvchi o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri muloqotning kamligi;
- o'qitishning butun bir sinfga qaratilishi va individual yondashuvning kamligi

Yuqorida ko'rsatib o'tilgani kabi, an'anaviy ta'limning kamchiliklari qulayliklariga nisbatan ancha ko'proq.

Innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim shakli esa o'quvchi, talabalar va o'qituvchilarga ko'proq qulayliklar va imkoniyatlar yaratadi, ammo bunday ta'lim shakli ham o'ziga xos kamchiliklarga ega.

Yutuqlari

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

- sifatli va samarali o'zlashtirishni kafolatlaydi;
- o'rganish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi, amaliyot orqali tilning maqsadini tushunishni osonlashtiradi;
- o'quv materiallari orqali fanni tushuntirishning turli usullarini beradi;
- o'rganish va muloqot qilish uchun motivatsiyani oshiradi;
- talabalarning o'z-o'zini baholashiga imkon yaratadi;
- talabalarning o'quv materialiga va o'quv jarayoniga ijobiy munosabatini kuchaytiradi;
- talabalarni tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi;
- haqiqiy materiallardan foydalanish va muloqot uchun real vaziyatlarni yaratish imkoniyatini beradi.

Kamchiliklari

- ko'p vaqt talab qiladi;
- dars davomida juda ko'p shovqin;
- o'qituvchi tomonidan o'rnatiladigan nazoratning kam bo'lishi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash kerakki, xorijiy innovatsion texnologiyalar yurtimizning barcha ta'lim muassasalarida ham joriy etilganicha yo'q. Bazi ilm dargohlarida darslar hali hanuz eski, ya'ni, an'anaviy ta'lim uslubida zamonaviy texnologiya va metodlarsiz, o'qituvchi-dominand uslubida olib borilmoqda. Albatta, an'anaviy ta'ilming ham o'ziga yarasha yutuq va kamchiliklari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G. T. Makhkamova, Sh. S. Alimov, A. I. Ziyayev “ Innovative pedagogical technologies in the English language teaching”. Tashkent “Fan va texnologiyalar”-2017.-25-b.
2. <https://goaravetisyan.ru/uz/ispolzovanie-innovacionnyh-tehnologii-na-urokah-angliiskogo-yazyka/>
3. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2021-y., 07/21/5117/0472-son, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son, 12.05.2022-y., 07/22/241/0408-son)